

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI


71010101 – Turizm va mehmondo 'stlik magistratura mutaxassisligining

MALAKA TALABI

Kvalifikatsiya

objekt

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti;

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti;

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024 yil “\_\_\_” dagi \_\_\_ - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”,  
“Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va  
mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq  
malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilar  
takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat  
hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish  
huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga  
tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>8</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>8</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	<b>10</b>
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	<b>11</b>

## 1. Umumiy tavsifi

71010101 – Turizm va mehmondo ‘stlik’ magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

### 1.1. Qo’llanish sohasi.

#### 1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talabi 71010101 – Turizm va mehmondo ‘stlik’ magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv fan sillabuslarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruvi xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Yakuniy Davlat attestatsiya komissiyalar;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilar hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilar va boshqa manfaatdor shaxslar.

## 1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

### 1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari.

“Xizmat ko‘rsatish sohasi” ta’lim sohasiga oid mutaxassislik bo‘lib, u barcha ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi turistik korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarda, turizm sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, mutaxassislikka oid kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

### 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

## *“71010101 – Turizm va mehmondo ‘stlik” mutaxassisligi*

turizm va mehmondo ‘stlik tarmog‘i tizimi va turizm xizmatlarini ko‘rsatishda ishtirok etuvchi tashkilotlar;

turizm va mehmondo ‘stlik sohasining barcha turlari bilan shug‘ullanuvchi, turli mulkchilik shakldagi korxonalar;

turizm mehmondo ‘stlik sohasidagi xalqaro, davlat va mahalliy boshqaruv organlari, xalqaro aloqalar va iqtisodiyot bosh boshqarmalari;

ilmiy masalalar bilan bog‘liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;

xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlari, turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarining mehnat faoliyati, xalqaro turizm korporatsiyalari, turoperatorlik, turagentlik, joylashtirish vositalari, transport, ovqatlanish, aloqa korxonalari, firma va kompaniyalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

*ilmiy tadqiqot faoliyati;*

*pedagogik faoliyat;*

*moliyaviy-iqtisodiy faoliyat;*

*hisob, tahlil va nazorat faoliyati;*

*tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*

*xizmat ko‘rsatish faoliyati.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

71010101 – Turizm va mehmondo ‘stlik mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;

## *"71010101 – Turizm va mehmondo 'stlik" mutaxassisligi*

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

### **Moliyaviy-iqtisodiy hamda tahlil va nazorat faoliyatida:**

xalqaro, davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

iqtisodiyot tarmoq va sohalarining miqdor va sifat me'zonlari, iqtisodiy tizim va obyektlar chegaraviy hamda kritik holatining indikatorlarini aniqlash;

xizmat ko'rsatish, turizm va mehmondo 'stlik sohalarining barqaror rivojlanish yo'nalishlarida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

turizm va mehmondo 'stlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;

O'zbekistondagi hamda xorijdagi turizm va mehmondo 'stlik sohalarida mikro va makrodarajada sodir bo'ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni xarakterlaydigan sohaga oid iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash, iqtisodiy rivojlanishga tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash;

byudjet tizimi va byudjet parametrlari, byudjetdan tashqari turli jamg'armalarning shakllanishi hamda bajarilishini nazorat qilish, davlat va mahalliy resurslaridan samarali foydalanish choralarini ko'rish;

turizm va mehmondo 'stlik sohasida davlat va mahalliy turistik tashkilot va korxonalarda ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

### **Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

turizm va mehmondo 'stlik sohalarida xizmat ko'rsatishni tashkil etish va boshqarish;

fan va texnika yutuqlarini sohadagi xizmat ko'rsatish jarayoniga tatbiq etish;

turizm va mehmondo 'stlik sohalarida iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

amaliy faoliyatda sohada xizmat ko'rsatish muhitini takomillashtirish;

turizm va mehmondo 'stlik tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi korxona va ularning alohida bo'linmalarining tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, turizm va mehmondo 'stlik sohasida texnik, ekologik standartlarni ishlab chiqish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy rivojlanish sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtiolar

## “71010101 – Turizm va mehmondo ‘stlik’” mutaxassisligi

bo‘yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

qabul qilinadigan qarorlarni iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

turizm va mehmondo‘stlik sohasida shartnomalarni tuzish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni to‘plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

turizm va mehmondo‘stlik sohasida korxonalarning xizmat ko‘rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni rejalashtirish va amalga oshirish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik va informatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

turizm va mehmondo‘stlik sohasida yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tatbiq qilinishini tashkil etish.

### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi, kasbiy faoliyatidan zamonaviy ilmiy asosda foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay olishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

sohaga oid raqamli platformalardan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishslashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

xalqaro web sahifalarda e’lon qilingan hisobot va ma’lumotlardan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli iqtisodiyotning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

turizm va mehmondo‘stlik sohasida ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, turizmga oid ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

## “71010101 – Turizm va mehmondo ‘stlik” mutaxassisligi

turizm va mehmondo ‘stlik sohasidagi xalqaro, davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lish;

turizm va mehmondo ‘stlik sohasida xizmat ko‘rsatishni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

xizmat ko‘rsatish tarmoqlaridagi korxonalar va ularning alohida bo‘linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

turizm va mehmondo ‘stlik sohasiga bevosita va bilvosita aloqador korxonalarda xizmat ko‘rsatish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda iqtisodiy tamoyillarni qo‘llay bilishi;

turizm va mehmondo ‘stlik sohasidagi loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo‘yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

turizm va mehmondo ‘stlik sohasida iqtisodiy rivojlanishni ta’minalash, ularga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilish;

turizm sohasida moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarini ishlab chiqish, sohada yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyatga tatbiq etishni bilish;

xizmat ko‘rsatish sohasiga oid loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

turizmga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo‘lish;

turizm va mehmondo ‘stlik sohasida me’yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o‘tqazishni bilish.

### **3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Ilmiy amaliyot (stajirovka) – majburiy mutaxassislik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy amaliyot (stajirovka) o‘tkaziladi.

### **4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1380	46	
1.01	ITM1106	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	TT1106	Turizm va mehmondo’slikda tadbirkorlik	180	6	1
1.03	TXB11208	Turizm xizmatlar bozori	240	8	1,2

*“71010101 – Turizm va mehmondo ‘stlik’” mutaxassisligi*

1.06	TLB1306	Turizmda loyihalar boshqaruvi	180	6	3
1.07	MO'M1306	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	180	6	3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari (<i>4 ta fan</i>)</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	<b>1-3</b>
Kvalifikatsiya		Iqtisodchi, pedagog-tadqiqotchi			
		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1620</b>	<b>54</b>	
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	1-4
		Ilmiy pedagogik ish	360	12	1-3
		Ilmiy amaliyot (stajirovka)	180	6	4
		<b>Hammasi</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	



**Bibliografik ma’lumotlar**

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---


**Tayanch so‘zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, profil, turizm va mehmondo ‘stlik’ sohasida xizmat ko‘rsatish, turizm va mehmondo ‘stlik’ sohasida innovatsion texnologiyalar, turizmda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, turistik mahsulot, tavakkalchilik, raqobat, raqobatbardoshlik, turizm tarmoqlari, baholash, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, turizmda tashkiliy-boshqaruva faoliyati, o‘quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, turizmda loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, raqamli iqtisodiyot, kredit-modul tizimi, turizmda zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, turoperator, turmarshrut, turizm turlari, turizm destinatsiyalari, turistik markazlar, mintaqaviy turizm.

“71010101 – Turizm va mehmondo ‘stlik’ mutaxassisligi  
Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari  
hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:


Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Rektor  M. Po'latov

202\_yil “ ”



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor  T. Teshabayev

202\_yil “ ”

M.O.


“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

1-prorektor  D. Nasimov

202\_yil “ ”



Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Rektor  G. Rixsiyeva

202\_yil “ ”

M.O.



**KELISHILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor



M.Baltabaev

M.O.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya,  
atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim  
o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm  
qo‘mitasi

Rais o‘rinbosari



S.Niyazov

“Dinara tour service”  
turistik firmasi

Direktor

M.O.



F.Muhammadjonov

2021 yil « »

“Bo‘stonsaroy” mehmonxonasi

Direktor

M.O.



A.Hazratqulov

2021 yil « »